

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.19.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI VA MUHANDISLIGI XALQARO
INSTITUTI**

MARDANOV SAIDOLIM ABDIALIMOVICH

**NATRIY XLORAT, KARBAMID, ETANOLAMINLAR, FOSFAT
TUZLARI VA OLTINGUGURT ASOSIDAGI POLIFUNKSIONAL
DEFOLIANTLAR Olish**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the dissertation abstract of doctor of filosofy (PhD)

Mardanov Saidolim Abdialimovich

Natriy xlorat, karbamid, etanolaminlar, fosfat tuzlari va oltingugurt asosidagi polifunksional defoliantlar olish.....3

Марданов Саидолим Абдиалимович

Получение дефолиантов полифункционального действия на основе хлората натрия, карбамида, этаноламинов, фосфатных солей и серы.....21

Mardanov Saidolim Abdialimovich

Production of polyfunctional defoliant based on sodium chlorate, urea, ethanolamines, phosphate salts and sulfur.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.19.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**OZIQ - OVQAT TEXNOLOGIYASI VA MUHANDISLIGI XALQARO
INSTITUTI**

MARDANOV SAIDOLIM ABDIALIMOVICH

**NATRIY XLORAT, KARBAMID, ETANOLAMINLAR, FOSFAT
TUZLARI VA OLTINGUGURT ASOSIDAGI POLIFUNKSIONAL
DEFOLIANTLAR Olish**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona - 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/T6112 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.fstu.edu.uz va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xamdamova Shoxida Sherzodovna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turayev Zokirjon
texnika fanlari doktori, professor

Xoshimov Axrorjon Axadovich
texnika fanlari falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo - texnologiya instituti

Dissertatsiya ishi himoyasi Farg'ona davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.19.06 raqamli Ilmiy kengashning "____" oktabr 2026 yil soat "____" dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150109, Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86. Tel.: (99873) 241-12-06, faks (99873) 241-12-06, e-mail: info@fstu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat texnika universitetining Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (____raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150109, Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86. Tel.: (+99873) 241-12-06, faks (+99873) 241-12-06, e-mail: info@fstu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "____" oktabr kuni tarqatildi.
(2026 yil "____" oktabrdagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

Tojiyev R.R.

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d. professor

Kaxxarov E.M.

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi t.f.f.d.

Dexkanov Z.K.

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi t.f.d.professor

Kirish (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarutati. Dunyoda zarurartliligi jihatidan yuqori o‘rinlardan sanalgan, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan biri g‘o‘za o‘simligi hisoblanadi. Bu o‘simlikdan paxta tolasi, chigitidan esa texnik moy olinadi. Qishloq xo‘jaligi ekinlaridan samarali, sifatli va mo‘l hosil olishning birlamchi omillaridan biri mineral o‘g‘itlar, stimulyatorlar, gerbitsidlar, pestitsidlar, insektitsidlar, fungitsidlardan oqilona va me‘yorida foydalanishdir. Paxta xomahyosini yetishtirishda, zaharlilik darajasi kam, yuqori unumdorlikka ega bo‘lgan defoliantlar ishlab chiqarish va defoliatsiya uchun qo‘llash alohida ahamiyatga egadir. Bu o‘rinda, natriy xlorati, karbamid asosida tarkibida azot, fosfor, etilen hosil qiluvchi, oltingugurt va fiziologik faol moddalardan iborat bo‘lgan ko‘p funksiyali va yuqori unumga ega bo‘lgan defoliantlar sintez qilish, ularni fizik-kimyoviy jihatlarini ilmiy asoslash va maqbul sarf me‘yorlarini agrokimyoviy nuqtai nazardan istiqbolli va samarali ekanligi bilan aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Jahonda paxta xomashyosini sifatli yetishtirish va yo‘qotishlarsiz yig‘ib-terib olishda mahalliy xom ashyolardan murakkab tarkibli defoliantlar olish texnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, ilmiy va texnikaviy echimlarga asoslangan g‘o‘za o‘simligining fiziologik jarayonlariga ta‘sir qiluvchi, barglarning samarali to‘kilishini, yosh ko‘saklarning tez pishib yetilishini sezilarli darajada tezlashtiruvchi preparatlar ishlab chiqish bo‘yicha: tarkibida, monokarbamid natriy xlorat tuzi asosida defoliatsiyalovchi va fiziologik faol xossaga ega bo‘lgan preparatlarni sintez qilishga, defoliantlarning reologik xossalarini fizik-kimyoviy usullarda tadqiq qilishga, ularning olinish texnologiyalarini ishlab chiqishga, toksikologik sinovlarini o‘tkazishga, va ularni qishloq xo‘jaligi ekinlarida jumladan, g‘o‘zada agrokimyoviy sinovlardan o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mahalliy xomashyolarni qayta ishlash, defoliantlar, mikro-va makroo‘g‘itlar, o‘stiruvchi vositalar, fiziologik faol moddalar va boshqa turdagi kimyoviy preparatlarni ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligini ta‘minlash borasida, muayyan natijalarga erishilgan. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasining oltinchi yo‘nalish 79-maqsadida «...aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish...»¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada esa, tarkibida monoammoniy fosfat, monoetanolamin, oltingugurt va sirt faol moddalar bo‘lgan natriy xlorati hamda, karbamid tuzlari asosidagi ko‘p funksiyali ta‘sirga ega bo‘lgan defoliantlarni sintez qilish va ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60 son qarori

to'g'risida" gi farmonida "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish" farmoni va 2021 yil 13 fevraldagi PQ - 4992 - son "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorigaⁱ muvofiq ravishda, ushbu faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiyadagi ilmiy-amaliy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoda o'rganilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari orqali tarkibi noorganik va organik moddalardan iborat bo'lgan defoliantlar sintez qilish va texnologiyasini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarida jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan G.V.Ketti, Jeyms Kost, Loston Rou, J.Den Smit, Ch.S.Vulyams, J.C.Sattl, F.R.H. Katterman, W.C.Hall, L.C.Braun, F.B.Solsberi, C.L.Rayn, Yo Gan, C.V.Ross, J.C.Silvertooth, L.Taiz, E.Zayger va boshqa olimlar katta hissa qo'shganlar.

Respublikamizda, anorganik va organik moddalar asosida defoliantlar sintez qilish va texnologiyasini ishlab chiqish borasida bir qator olimlar jumladan, S.Tuxtayev, B.S.Zokirov, M.K.Askarova, Sh.Sh.Xamdamova, F.E.Umirov, B.X.Kucharov, A.S.Tog'asharov, Z.A.Xamrokulov, J.S.Shukurov, D.A.Ergashev va boshqa olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlar amalga oshirilgan, natijada, paxtachilikda samarali defoliatsiyalovchi yangi turdagi defoliantlar yaratilgan va kimyo texnologiya fanining rivojiga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shgan.

Ilmiy adabiyotlarda defoliasiyalash xususiyatlariga ega bo'lgan, tarkibida magniy xlorat, kaltsiy xlorat, uch karbamid natriy xlorat va ikki karbamid natriy xlorat tuzlarini saqlovchi defoliantlar haqida ma'lum ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ammo, monokarbamid natriy xlorati, monoetanolaminning ammoniy fosfatli tuzlari, oltingugurt va sirt faol moddalar asosidagi fiziologik faol, insektitsid-akaritsid xususiyatlarga ega bo'lgan defoliantlarni olish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Ushbu dissertatsiya ishi natriy xlorati asosida ko'p funksiyali defoliantlar olish bo'yicha hozirgi kungacha ilmiy tadqiqotlar o'tkazmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya ishi Farg'ona davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, PZ-20170926386 raqamli "Qishloq xo'jaligi ekinlarining yetilishini tezlashtiruvchi ko'pfunksiyali xlorat tarkibli defoliantlarning tarkibi va ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish" (2018-2020 yy.) va "Samarali defoliant birikmalarini ilmiy tadqiq qilish va g'o'za defoliatsiyasida amaliy

qo'llash uchun eksperimental-sanoat ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzularidagi xo'jalik shartnomalari doirasida ("Farg'onaazot" AJ shartnoma №102-18, 13.12.2018 y.) bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi defoliatsiya uchun samarali, ekologik xavfsiz bo'lgan, tarkibida natriy xlorat, karbamid, azot, fosfor, etilen hosil qiluvchi, oltingugurt va sirt faol moddalaridan tashkil topgan, polifunksional xossalarga ega bo'lgan defoliantlarni sintez qilish va ularni olishning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

monokarbamid natriy xlorat, monoammoniy fosfat, diammoniy fosfat, monoetanolamin, dietanolamin va monoetanolaminning ammoniy fosfatli tuzlaridan iborat bo'lgan, suvli eritmalarining vizual-politermik eruvchanligini o'rganish hamda, politermik diagrammalarini qurish, tizimda hosil bo'lgan yangi birikmalarni ajratib olish, ularning tarkibini kimyoviy, fizik-kimyoviy usullari orqali tahlil qilish;

natriy xlorat tuzining suvdagi, hamda, karbamidning konsentrlangan natriy xlorat eritmasidagi erish jarayonining harorat va vaqt davomiyligiga bog'liq kinetikasini tadqiq qilish orqali, monokarbamid natriy xlorat tuzi eritmasining maqbul konsentratsiyasini aniqlash;

monokarbamid natriy xlorat, monoetanolaminning ammoniy fosfatli tuzi, oltingugurt va sirt faol moddalardan iborat sistemaning reologik xossalarini o'rganish va "tarkib-xossa" diagrammalarini qurish;

taklif etilgan defoliantlarning maqbul tarkibini aniqlash, moddiy balansini tuzish, printsiptial texnologik sxemasini ishlab chiqish, kattalashtirilgan laboratoriya tajriba sinov model qurilmasida ishlab chiqarish;

yangi defoliantlarning zaharlilik darajasini o'rganish;

olingan defoliantlarni paxta maydonlarida agrokimyoviy sinovlardan o'tkazish va ularni qo'llash uchun maqbul tarkibini aniqlash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida natriy xlorat, karbamid, monoammoniy fosfat, diammoniy fosfat, monoetanolamin, dietanolamin, monoetanolaminning ammoniy fosfatli tuzi, oltingugurt va sirt faol moddalar olingan.

Tadqiqotning predmetini tarkibida monokarbamid natriy xlorat, monoetanolaminning ammoniy fosfatli tuzi, oltingugurt va sirt faol moddalar orqali g'o'zaga "yumshoq" ta'sir etuvchi fiziologik faol, zararkunandalarga qarshi kurashishda insektitsid-akaritsid xossaga ega bo'lgan defoliantlar olish va texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida vizual-politermik eruvchanlik, piknometrik, fizik-kimyoviy, termik, rentgen fazali tahlil, pH metriya (METTLER TOLEDO pH FE 20/FG 2), viskozimetriya (qovushqoqlik VPJ viskozimetri), refraktometriya (IRF 454 BM) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

suv, monokarbamid natriy xlorat, ammoniy fosfat, diammoniy fosfat, monoetanolamin, dietanolamin, monoetanolaminning ammoniy fosfatli tuzlari

ishtirokida 9 ta eruvchanlik sistemalari o'rganilib, politermik eruvchanlik diagrammalari qurilgan va qattiq fazalarning xossalari aniqlangan;

diagrammada hosil bo'lgan quyidagi: $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$, $2\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot 3\text{NH}_4\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$, $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}(\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH})_2$, $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$, $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{NH}(\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH})_2$ tarkibli birikmalar sistemadan ajratib olindi hamda, kimyoviy, fizik-kimyoviy usullari orqali mavjudligi aniqlangan;

monokarbamid natriy xlorati, monoetanolaminning ammoniy fosfatli tuzi, oltingugurt, hamda, sirt faol modda ishtirokidagi tizimlarining reologik va fizik-kimyoviy xossalari o'rganilib, "tarkib-xossa" diagrammalari qurilgan;

natriy xlorat, karbamid, ammoniy fosfat tuzi, monoetanolamin, oltingugurt va sirt faol moddalaridan iborat komponentlar ishtirokida ikki turdagi polifunksional defoliant tarkiblarining olinish usullari, texnologik ko'rsatgichlari, prinsipial sxemasi va texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarkibida natriy xlorat tuzi, karbamid, monoammoniy fosfat, monoetanolamin, oltingugurt va sirt faol moddalar asosidagi defoliantlar olishning fizik-kimyoviy tavsiflari, moddiy balansi hamda, printsiplial texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

taklif qilingan defoliantlar tarkibi "Elektrokimyozavod" QK AJ ning laboratoriya tajriba sinov model qurilmalarida tajriba sinovidan o'tkazilib, ikki turdagi preparat namunalari ishlab chiqarilgan, hamda, paxta dala maydonlarida agrokimyoviy sinovlardan o'tkazilgan, defoliatsiyalash samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqotlarda olib borilgan vizual-politermik, kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil usul natijalari, hamda, taklif etilgan defoliant tarkiblari, tajriba sinov sanoat qurilmalarida va agrokimyoviy sinovlaridan o'tganligi va ma'lumotnomasi asosida tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, monokarbamid natriy xlorat, ammoniy fosfat, diammoniy fosfat, monoetanolamin, dietanolamin, monoetanolaminning ammoniy fosfatli tuzlaridan iborat bo'lgan to'qqizta suvli sistemalarida komponentlarning o'zaro eruvchanligi va ta'sirlashuvini o'rganish davomida $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$, $2\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot 3\text{NH}_4\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$, $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}(\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH})_2$, $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$, $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{NH}(\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH})_2$ tarkibli yangi birikmalar hosil bo'lishi aniqlangan bo'lib, olingan ilmiy ma'lumotlar tuzlar tizimi grafik tahlili yo'nalishida metodologik-uslubiy yondashuvlarni yangicha shakllanishiga va ilmiy ko'nikmalar hosil bo'lishiga asos bo'ladi.

Tadqiqotlar natijasining amaliy ahamiyatlari, natriy xlorat tuzi asosida, tarkibida karbamid va ammoniy fosfat tuzlari, monoetanolamin, oltingugurt va sirt faol moddalaridan tashkil topgan, fiziologik faol va insektitsid-akaritsid xususiyatga ega suyuq defoliantlar olishning, maqbul texnologik ko'rsatgichlari aniqlangan, texnologik sxemasi ishlab chiqilgan, hamda, agrokimyoviy sinovlardan o'tkazilgan, shu bilan birgalikda, ushbu ma'lumotlar, kimyo

texnologiya yoʻnalishidagi talabalar uchun amaliy qoʻllanma sifatida foydalanishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Natriy xlorat, karbamid, ammoniy fosfat, monoetanolin, oltingugurt va sirt faol moddalar asosida polifunksional defoliantlar olish, texnologiyasini ishlab chiqish boʻyicha, olingan ilmiy natijalar asosida:

MKXN-MAF·MEA suyuq defoliantini olish “Elektrokimyozavod” QK AJ ning 2026-2028 yillardagi amaliyotga joriy qilish boʻyicha istiqbolli ishlanmalari roʻyxatiga kiritilgan (“Elektrokimyozavod” QK AJ ning 2024 yil 6-sentabrdagi 50-son maʼlumotnomasi). Natijada, ushbu defoliant gʻoʻza barglarining toʻkilishini, koʻsaklarning pishib yetilishini tezlashtiradi, hosildorlikni oshirish imkonini beradi.

MKXN-MAF·MEA-S-SFM defoliantini olish “Elektrokimyozavod” QK AJ ning 2026-2028 yillardagi amaliyotga joriy qilish boʻyicha istiqbolli ishlanmalari roʻyxatiga kiritilgan (“Elektrokimyozavod” QK AJ ning 2024 yil 6-sentabrdagi 50-son maʼlumotnomasi). Natijada, mazkur defoliant gʻoʻza barglarining unumli toʻkilishini, koʻsaklarning tez pishib ochilishini sezilarli darajada oshirishga hamda gʻoʻza zararkunandalariga qarshi kurashishda hamda moʻl hosil olish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 17 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Ulardan, 10 ta ilmiy maqola Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr qilish uchun, tavsiya qilingan ilmiy jurnallarda eʼlon qilingan boʻlib, 5 ta maqola mahalliy, 5 tasi xorijiy nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibini kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalar tashkil qiladi. Dissertatsiya hajmi 110 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va muhimligi asoslangan, maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obʼyeksi va predmeti tavsiflangan, Oʻzbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi koʻrsatilgan, ilmiy yangilik va amaliy natijalar bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, eʼlon qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Defoliatsiya uchun zamonaviy defoliantlar”** deb nomlangan birinchi bobida defoliantlarning oʻsimlik fiziologiyasiga taʼsiri,

noorganik va organik defoliantlar, kompleks ta'sirli defoliantlar, ularni olish usullari va texnologiyalari haqida adabiyotlardan ma'lumotlar berilgan. Mazkur dissertatsiyaning maqsad va vazifalari adabiyotlarni chuqur tahlil qilish asosida shakllantirildi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning ob’ektlari va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida natriy xlorat, karbamid, monokarbamidxlorat natriy, monoetanolamin, dietanolamin, ammoniy fosfat, diammoniy fosfat, oltingugurt va sirt faol moddalarning xususiyatlari, sintezi va fizik-kimyoviy tahlillari, hamda, kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Monokarbamid natriy xlorati, monoetanolamin, dietanolamin, monoammoniy fosfat, diammoniy fosfatlardan iborat suvli eritmalarining fizik - kimyoviy tadqiqoti”** deb nomlangan uchinchi bobida monokarbamidxlorat natriy asosida, monoetanolamin, dietanolamin va monoammoniy fosfat, diammoniy fosfat, suv sistemalarining politermik eruvchanlik diagrammalari o'rganildi.

$\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ - $\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ - H_2O sistemasi oltita ichki kesimlar yordamida $-51,9^\circ\text{C}$ dan $18,0^\circ\text{C}$ harorat oralig'ida kuzatuv-politermik usulda o'rganildi va diagrammasi tuzildi (1-rasm). Diagrammada muzning, $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$, $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$, $\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH} \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH} \cdot \text{H}_2\text{O}$ va $\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ larning kristallanish maydonlarining chegaralari aniqlandi. Ushbu maydonlar sistemaning uchta uchlamchi nuqtasida birlashadi, sistemada yangi kimyoviy birikmalar hosil bo'lmagan va komponentlar o'z individualligini saqlab qolgan.




1-rasm. $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ - $\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ - H_2O tizimining eruvchanlik diagrammasi

$\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2 - \text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2 - \text{H}_2\text{O}$ sistemasi sakkizta ichki kesimlar yordamida $-67,4^\circ\text{C}$ dan $20,0^\circ\text{C}$ gacha harorat oralig'ida kuzatuv-politermik usulda o'rganildi va diagrammasi tuzildi (2-rasm). Diagrammada muzning, $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$, $\text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ ning kristallanish maydonlari aniqlandi. Ushbu maydonlar sistemaning bitta uchlamchi nuqtasida birlashadi va tizimda yangi kimyoviy birikmalar hosil bo'lmagan, komponentlar o'z individualligini saqlab qolgan.




2-rasm. $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2 - \text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2 - \text{H}_2\text{O}$ tizimining eruvchanlik diagrammasi

$\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2 - \text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 - \text{H}_2\text{O}$ sistemasi o'n bitta ichki kesimlar yordamida $-32,4^\circ\text{C}$ dan $100,0^\circ\text{C}$ gacha harorat oralig'ida tadqiq qilindi va diagrammasi qurildi (3-rasm). I-V kesmalar $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 - \text{H}_2\text{O}$ tomondan $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ tomoniga, VI - XI kesmalar $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2 - \text{H}_2\text{O}$ tomondan $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ tomoniga o'tkazilib o'rganildi. Diagrammada muzning, karbamidning, monokarbamidoxlorat natriyning va monoammoniy fosfatning kristallanish maydonlari chegaralandi. Sistemada yangi birikma hosil bo'lmadi, komponentlar o'z individualligini saqlab qoladi.



3-rasm. $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ - $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ - H_2O sistemaning eruvchanlik diagrammasi


$\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ - $(\text{NH}_4)\text{HPO}_4$ - H_2O sistemasini o'rtacha ichki kesimlar yordamida $-28,2^\circ\text{C}$ dan $51,8^\circ\text{C}$ gacha harorat orasida o'rganildi va diagrammasi qurildi (4-rasm). I-VI kesmalar $(\text{NH}_4)\text{HPO}_4$ - H_2O tomondan $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ tomoniga, VII-XIII kesmalar $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ - H_2O tomondan $(\text{NH}_4)\text{HPO}_4$ tomoniga o'tkazilib tadqiq qilindi. Diagrammada muzning, $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$, $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$, $(\text{NH}_4)\text{HPO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ va $(\text{NH}_4)\text{HPO}_4$ ning kristallanish maydonlari chegaralandi. Ushbu maydonlar sistemaning uchta uchlamchi nuqtasida birlashadi va yangi birikma hosil bo'lmadi va komponentlar o'z individualligini saqlab qoladi.



4-rasm. $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ - $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ - H_2O tizimining eruvchanlik diagrammasi

Dissertatsiya ishining “Suv, monoammoniy fosfat, diammoniy fosfat, monoetanolamin, dietanolaminlar ishtirokidagi komponentlarining o‘zaro ta’sirini o‘rganish” nomli to‘rtinchi bobida, $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ asosidagi monoetanolamin va dietanolamin-suv tizimlari va $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ asosidagi monoetanolamin va dietanolamin-suv tizimlarining politermik eruvchanligi o‘rganildi.

$\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ - $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$ - H_2O tizimining politermik eruvchanligi o‘nta ichki kesmalar yordamida, $-53,0^\circ\text{C}$ dan $68,0^\circ\text{C}$ gacha harorat orasida o‘rganildi va politermik diagrammasi tuzildi (5-rasm). I - V kesmalar $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$ - H_2O tomondan $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ tomoniga, VI - IX kesmalar $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ - H_2O tomondan $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$ tomoniga o‘tkazilib tadqiq qilindi. Diagrammasida muzning, $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$, yangi birikma $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$, $2\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot 3\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$, $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH} \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH} \cdot \text{H}_2\text{O}$ va $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$ ning kristallanish hududlari aniqlandi. Ushbu hududlar tizimning uchta uchlamchi nuqtasida birlashadi. Diagrammaning tahlil natijasida hosil bo‘lgan yangi faza, $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$, $2\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot 3\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$ birikmasi ajratib olindi, tarkibi element kimyoviy tahlil usulida o‘rganildi, mavjudligi tasdiqlandi (1-jadval).




5-rasm. $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ - $\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ - H_2O tizimining eruvchanlik diagrammasi

1- jadval

$2\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot 3\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$, $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ birikmalarining element tahlil natijasi

Birikma	Topildi, %				Hisoblangan, %			
	N	H	C	P ₂ O ₅	N	H	C	P ₂ O ₅
$2\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot 3\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$	15,01	6,98	16,87	35,02	16,95	7,51	17,43	34,38
$\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$	15,13	6,79	13,07	40,51	15,9	7,38	13,64	40,33

$\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ - $\text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ - H_2O tizimining politermik eruvchanligi o'nta ichki kesmalar yordamida, $-58,3^\circ\text{C}$ dan $48,2^\circ\text{C}$ gacha harorat orasida o'rganilib, politermik diagrammasi tuzildi (6-rasm). I - V kesmalar $\text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ - H_2O tomondan $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ tepasigacha, VI - X kesmalar $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ - H_2O tomondan $\text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ tomoniga o'tkazilib o'rganildi. Sistema fazasida muzning, monoammoniy fosfatning, yangi birikmaning $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ va dietanolaminning kristallanish maydonlari chegaralandi. Sistemada hosil bo'lgan birikma ajratilib, tarkibi kimyoviy (2-jadval) va fizik-kimyoviy usullari bilan tahlil qilingan.




6-rasm. $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ - $\text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ - H_2O sistenasining eruvchanlik diagrammasi

2-jadval

$\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ birikmasining element tahlil natijasi

Birikma	Topildi, %				Hisoblangan, %			
	N	H	C	P ₂ O ₅	N	H	C	P ₂ O ₅
$\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$	12,78	7,75	20,71	50,2	12,72	7,72	21,8	50

$(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ - $\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ - H_2O tizimi eruvchanligi o'rganildi. Tizim to'qqizta ichki kesmalar yordamida, harorat $-47,8^\circ\text{C}$ dan $45,1^\circ\text{C}$ gacha oraliqda o'rganildi, ular asosida tizim eruvchanligining politermik diagrammasi tuzildi (7-rasm).



7-rasm. Tizimning eruvchanlik diagrammasi $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ - $\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ - H_2O


Diagrammada muzning, $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ ning, $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ning, yangi birikma $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ ning, $\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH} \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ning, $\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH} \cdot \text{H}_2\text{O}$ ning, $\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ ning kristallanish maydonlari chegaralandi. Ushbu maydonlar beshta uchlamchi nuqtalarda birlashadi. Hosil bo'lgan birikmani sistemadan ajratib, tarkibi kimyoviy (3-jadval), fizik-kimyoviy usullarda tahlil qilindi.

3- jadval

$\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ birikmasining element tahlil natijasi

Birikma	Topildi, %				Hisoblangan, %			
	N	H	C	P_2O_5	N	H	C	P_2O_5
$(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$	12,79	8,34	12,39	50,4	12,76	8,29	12,43	50

$(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ - $\text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ - H_2O sistemasi sakkizta ichki kesmalar yordamida $-58,7^\circ\text{C}$ dan $70,0^\circ\text{C}$ gacha harorat orasida o'rganildi va diagrammasi qurildi (8-rasm). unda muz, $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$, $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ $\text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ va birikma $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ ning kristallanish maydonlari chegaralandi.



8-rasm. $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ - $\text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ - H_2O sistemasining eruvchanlik diagrammasi.

Hosil bo'lgan birikma taxmin qilingan hududdan ajratib olindi va kimyoviy (4-jadval), fizik-kimyoviy tahlil usullari bilan aniqlandi.


4-jadval

$(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ birikmasining element tahlil natijasi

Birikma	Topildi, %				Hisoblangan, %			
	N	H	C	P_2O_5	N	H	C	P_2O_5
$(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$	12,79	8,48	19,65	50,6	17,72	8,40	20,25	50


Dissertatsiyaning “Natriy xlorat, karbamid, ammoniy fosfat, monoetanolin, oltingugurt hamda, sirt faol moddalar asosida defoliantlar olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda, ularning zaharliligi va agrokimyoviy xususiyatlarining tavsifi” mavzusidagi beshinchi bobida, natriy xlorat va karbamidning vaqtga bog'liq erish kinetikasi, monokarbamidxlorat natriy, monoetanolinning ammoniy fosfatli tuzi, oltingugurt va sirt faol moddalar orasidagi “tarkib-xossa” sini o'rganish natijalari, tadqiqot natijalari asosida defoliantlar olishning asosiy texnologik sxemasi ishlab chiqilgan.

Yuqori samarali defoliant olishning fizik-kimyoviy jarayonini asoslash maqsadida $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ - $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ - H_2O tizimidagi komponentlarning eruvchanligi va o'zaro ta'siri 12 ta ichki kesmalar yordamida to'liq muzlash harorati $-46,0^\circ\text{C}$ dan $70,0^\circ\text{C}$ gacha bo'lgan haroratda o'rganib chiqildi (9-rasm). Diagrammada muzning, $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ ning, $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ ning kristallanish maydonlari chegaralandi.



9-rasm. $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ - $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ - H_2O tizimining eruvchanlik diagrammasi.


[60 % $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ - H_2O] + $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ tizimining reologik xossalari tadqiq qilindi va uning “tarkib - xossa” diagrammasi qurildi (10-rasm). Tadqiqotlar va agrokimyoviy sinov natijalari asosida maqbul defoliant tarkibi tanlab olindi. Ushbu defoliantning kristallanish harorati - 8,3 °C, pH ko'rsatgichi - 7,2, zichligi - 1,6, qovushqoqligi - 1,340, nur sindirish ko'rsatgichi - 2,500 ga teng.



10-rasm. [60 % $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$ - H_2O] + $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ tizimining tarkibi - xossa diagrammasi

1-kristallanish harorati, 2-qovushqoqlik, 3-pH, 4-zichlik, 5-nur sindirish ko'rsatgichi.


Qishloq xo'jaligida insektitsid-akaritsid tarkibli defoliant olish uchun tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot obyekti sifatida oltingugurt konsentratsiyasi 0 dan 5% gacha, kir yuvish sovuni esa 0 dan 1 % gacha qabul qilindi (11-rasm).



11-rasm. Oltingugurtning ho'llanish grafigi.


Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, defoliantga 1,0 % kir sovuni va 5,0 % oltingugurt qo'shilishi suspenziyaning barqarorligini oshiradi.

Tarkibida monokarbamidxlorat natriy, fiziologik faol va insektitsid-akaritsid komponenti bo'lgan defoliant olishning fizik-kimyoviy asoslash maqsadida, quyidagi $[60\% \text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2 - \text{H}_2\text{O} + 3,6\% \text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}] + \text{S} + \text{SFM}$ sistemasining reologik xususiyatlari o'rganilib, "tarkib-xossa" diagrammasi qurildi (12-rasm). Maqbul defoliant tarkib sifatida quyidagi nisbat $[60\% \text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2 - \text{H}_2\text{O} + 3,6\% \text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}] - [5\% \text{S} + 1\% \text{PAV}]$ tanlab olindi.



12-rasm. $[60\% \text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2 - \text{H}_2\text{O} + 3,6\% \text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}] +$ sirt faol modda. Eritmadagi pH va qovushqoqlik o'zgarishining tizim tarkibiga bog'liqligi.

O'tkazilgan fizik-kimyoviy tadqiqotlar, tizimlar va ularning xossalari, texnologik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari, agrokimyoviy sinovlar natijalari asosida quyidagi ikkita defoliant tarkibi taklif etiladi. Birinchi defoliant tarkibida natriy xlorat, karbamid, ammoniy fosfat va monoetanolamin, ikkinchi defoliant tarkibida natriy xlorat, karbamid, ammoniy fosfat, monoetanolamin, oltingugurt va sirt faol moddalar mavjud. Ushbu murakkab ta'sirli defoliantlarni olishning asosiy texnologik sxemasi ishlab chiqilgan (13-rasm).



13 - rasm. Natriy xlorat, karbamid, ammoniy fosfat, monoetanolamin, oltingugurt va sirt faol moddalar asosida defoliantlar olishning asosiy texnologik sxemasi:

1,10-reaktor, 2,511,14-bunker; 3,612,15- lentali tortish moslamalari; 4,13- sarf o'lchagichlari; 7,17,19-ventil; 8-markazdan qochma nasos; 18-oraliq yig'gich; 20-qadoqlash uskunasi.

Taklif etilayotgan defoliantlarimiz "Elektrokimyozavod" QK AJ ning tajriba qurilmasida sinovdan o'tkazildi. Iqtisodiy samaradorligining taxminiy hisobi 1 tonna MKXN - MAF·MEA defolianti 14380000 so'mni, MKHN - MAF·MEA - S - PAV defolianti 13855900 so'mni tashkil etadi. 1 tonna "Magniy xlorat" suyuq preparatining tannarxi 25000000 so'm ekanligini hisobga olsak, taklif etilayotgan preparatlar "Magniy xlorat" suyuq preparatiga nisbatan 10620000 - 11144100 so'mga arzon.

Agrokimyoviy tadbir sinovlari g'o'zaning o'rta tolali "Buxoro 102", "C - 8290", "C - 6524", "Andijon 35", "Namangan - 77", "Porloq", "Ravnoq-1", "Ravnoq-2", "Matonat" navlarida o'tkazildi. Bunda, sinov natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, sinovdan o'tgan preparatlar yaxshi defoliatsiyalovch va biologik faollikka ega. Barglar to'kilishi 86,4 - 89,03 %, ko'saklarning ochilishi 87,96 - 89,65 % ni tashkil etdi. Defoliatsiyadan keyingi 14 -kuni zararkunandalarning 97,5 - 99 % qismini yo'qolishiga olib keldi.

XULOSA

Ushbu dissertatsiya asosida quyidagi natijalarga erishildi:

1. $\text{NaClO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2$, $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$, $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$, $\text{NH}_4\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$, $\text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ va $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$ yordamida to'qqizta uch komponentli suvli tizimlarning vizual-politermik eruvchanligi o'rganildi va ularning diagrammalari qurildi. Olingan natijalar asosida tizimlardagi komponentlarning kristallanish maydonlarining chegaralari aniqlandi. Politermik eruvchanlik sistemasida hosil bo'lgan $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$, $2\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot 3\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$, $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$, $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$, $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{NH}(\text{C}_2\text{H}_4\text{OH})_2$ tarkibli yangi fazalarning diagrammadagi maydonlari chegaralandi. Ajratib olingan yangi birikmalarning tarkibi kimyoviy va fizik-kimyoviy usullar yordamida tahlil qilindi.

2. Monokarbamid natriy xlorat eritmasining optimal konsentratsiyasini olish uchun harorat va vaqt bog'liqligiga qarab, natriy xloratning suvdagi va karbamidning konsentrlangan natriy xlorat eritmasidagi erish kinetikasi o'rganildi.

3. Monokarbamid natriy xlorati, ammoniy fosfat, monoetanolamin, oltingugurt va sirt faol moddalar asosida olingan defoliantlarning me'yoriy defoliatsiyalovchi tarkiblarini aniqlash maqsadida ularning reologik xossalari o'rganildi, hamda, "tarkib-xossa" diagrammalari qurildi.

4. Natriy xlorat, karbamid, ammoniy fosfat, monoetanolamin, oltingugurt va sirt faol moddalar ishtirokidagi defoliantlar olishning moddiy balansi hisoblab chiqildi, asosiy printsiptial texnologik sxemalari ishlab chiqildi, hamda, texnologik me'yor ko'rsatgichlari aniqlandi.

5. Yangi defoliantlarning zaharlilik xususiyatlari O'zR FA, O'simlik moddalari kimyosi institutining "Farmakologiya va toksikologiya" laboratoriyasida o'rganildi. Olingan natijalariga ko'ra, ushbu defoliantlarning zaharliligi, GOST 12.1.007-79 ga muvofiq, 4-sinf ya'ni, kam xavfli moddalar guruhiga kirishi aniqlandi.

6. "Elektrokimyozavod" QK AJ da o'tkazilgan tajriba sanoat sinovlari natijasida ko'p funksiyali ta'sirga ega bo'lgan jami 1180 kg defoliant olindi.

7. Taklif qilinayotgan MKNX-MAF·MEA defoliantini bir tonnasining taxminiy narxi 14380000,0 so'mni, MKNX-MAF·MEA-S-SFM defoliantini taxminiy narxi esa 13855900,0 so'mni tashkil qiladi. Bir tonna suyuq magniy xlorat defoliantining narxi 25000000,0 so'm ekanligi hisobga olinsa, ishlab chiqarishga joriy qilishdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik bir tonna MKNX-MAF·MEA defolianti uchun 10 620 000,0 so'mni, 1 tonna MKNX-MAF·MEA-S-SFM defolianti uchun 11 144 100 so'mni tashkil qilishi aniqlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.T.19.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ИНСТИТУТ ПИЩЕВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И
ИНЖЕНЕРИИ**

МАРДАНОВ САИДОЛИМ АБДИАЛИМОВИЧ

**ПОЛУЧЕНИЕ ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ДЕФОЛИАНТОВ НА
ОСНОВЕ ХЛОРАТА НАТРИЯ, МОЧЕВИНЫ, ЭТАНОЛАМИНОВ,
ФОСФАТНЫХ СОЛЕЙ И СЕРЫ**

**02.00.13- Технология неорганических веществ и материалов
на их основе**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА
ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана - 2026

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2025.4.PhD/T6112.

Диссертация выполнена в Международном институте пищевых технологий и инжиниринга.

Афтореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице по адресу Научного совета www.fstu.edu.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу www.ziyonet.uz

Научный руководитель: **Хамдамова Шохид Шерзодовна**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Тураев Зокиржон**
доктор технических наук, профессор
Хошимов Ахроржон Ахадович
доктор философии (PhD) по техническим наукам

Ведущая организация: **Ташкентский химико-технологический институт**

Защита диссертации состоится «___» октября 2026 года в «___» часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.T.19.06 при Ферганском государственном техническом университете. Адрес: 150109, город Фергана, улица Ферганская, 86. Тел.: (+99873) 241-12-06, факс: (+99873) 241-12-06, e-mail: info@fstu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного технического университета (зарегистрирована под №___). (Адрес: 150109, город Фергана, улица Ферганская, 86. Тел.: (+99873) 241-12-06, факс: (+99873) 241-12-06)

Автореферат диссертации разослан «___» октября 2026 года.
(реестр протокола рассылки № ___ от «___» октября 2026 года).

Тожиев Р.Р.
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук профессор

Каххаров Э.М.
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней, доктор
философии (PhD) по техническим наукам

Дехканов З.К.
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению учёных
степеней, доктор технических наук профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Одной из важнейших сельскохозяйственных культур в мире является хлопчатник. Из этого растения получают хлопковое волокно, а из семян - техническое масло. Одним из первостепенных факторов получения высоких, качественных и стабильных урожаев сельскохозяйственных культур является рациональное и нормированное применение минеральных удобрений, стимуляторов, гербицидов, пестицидов, инсектицидов и фунгицидов. При выращивании хлопка-сырца особое значение имеет производство и применение высокоэффективных дефолиантов с низкой степенью токсичности. В связи с этим важное значение приобретает синтез multifunctional и высокоэффективных дефолиантов на основе хлората натрия и карбамида, содержащих азот, фосфор, этилен образующие, серосодержащие и физиологически активные вещества, научное обоснование их физико-химических свойств, а также определение оптимальных норм расхода с агрохимической точки зрения.

В мире проводятся научные исследования, направленные на разработку и совершенствование технологий получения дефолиантов сложного состава из местного сырья для качественного выращивания хлопка-сырца и его своевременной уборки с минимальными потерями. В этом направлении особое внимание уделяется разработке препаратов, воздействующих на физиологические процессы хлопчатника и способствующих эффективному опадению листьев, а также значительно ускоряющих созревание молодых коробочек, на основе научных и технических решений. В частности, проводятся исследования по синтезу дефолиантов на основе монокарбамидной соли хлората натрия, обладающих дефолиирующими и физиологически активными свойствами, изучению реологических свойств дефолиантов физико-химическими методами, разработке технологий их получения, проведению токсикологических испытаний, а также их агрохимическим испытаниям на сельскохозяйственных культурах, в том числе на хлопчатнике.

В нашей республике достигнуты определённые результаты в области переработки местного сырья, производства дефолиантов, микро- и макроудобрений, стимуляторов роста, физиологически активных веществ и других видов химических препаратов, а также обеспечения ими сельского хозяйства. В 79-й цели шестого направления Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены такие важные задачи, как «...устранение существующих экологических проблем, наносящих ущерб здоровью населения и генофонду...»¹. В этой связи особую актуальность приобретает создание технологий синтеза и производства multifunctional дефолиантов на основе хлората натрия и солей

¹Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».

карбамида, содержащих моноаммонийфосфат, моноэтаноламин, серу и поверхностно-активные вещества.

